



BANKLARDA YASHIL MOLIYA VA INNOVATSION MAHSULOTLAR: BARQAROR RIVOJLANISH VA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH

GREEN FINANCE AND INNOVATIVE PRODUCTS IN BANKS: ENHANCING SUSTAINABLE DEVELOPMENT AND COMPETITIVENESS

¹Mahmudov Ulug'bek Davronovich

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi mustaqil izlanuvchisi.

ORCID: 0009-0009-4166-5686, **E-mail:** u_mahmudov@yahoo.com

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Ushbu maqolada tijorat banklarida yashil moliya infratuzilmasini rivojlantirish va innovatsion mahsulotlarni joriy etish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqot barqaror rivojlanish va raqobatbardoshlik kontekstida yashil moliya vositalarining bank faoliyatiga ta'sirini ko'rsatadi. Yashil kreditlar, ESG investitsiyalari, yashil obligatsiyalar va ekologik maslahat xizmatlari orqali banklar ekologik va ijtimoiy mas'uliyatni oshiradi, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi va yangi investitsiya oqimini jalb qiladi. Shuningdek, maqolada innovatsion mahsulotlarni joriy etishda strategik rejalashtirish, raqamli texnologiyalar, xodimlar va yosh avlodning roli, regulyativ qo'llab-quvvatlash kabi omillar muhimligi ta'kidlanadi. Tadqiqot natijalari banklar uchun yashil moliya tizimini rivojlantirish va milliy iqtisodiyotda barqarorlikni oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Eng. - This article analyzes the development of green finance infrastructure and the introduction of innovative products in commercial banks. The study highlights the impact of green finance instruments on banking activities in the context of sustainable development and competitiveness. Through green loans, ESG investments, green bonds, and environmental advisory services, banks enhance ecological and social responsibility, strengthen financial stability, and attract new investment flows. The article also emphasizes the importance of strategic planning, digital technologies, employee and youth involvement, and regulatory support in implementing innovative products. The research findings provide practical recommendations for developing green finance systems and promoting sustainability in the national economy.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *yashil moliya, innovatsion mahsulotlar, barqaror rivojlanish, tijorat banklari, ESG investitsiyalari, ekologik barqarorlik.*
❖ *green finance, innovative products, sustainable development, commercial banks, ESG investments, ecological sustainability.*

Kirish.

So'nggi yillarda global iqtisodiyotda barqaror rivojlanish konsepsiyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ekologik va ijtimoiy mas'uliyatni hisobga olgan holda iqtisodiy

faoliyatni tashkil etish nafaqat xalqaro moliya institutlari talablariga moslash, balki milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashning ham samarali yo'li hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan tijorat banklarida yashil

moliya va innovatsion mahsulotlarni joriy etish muhim strategik yo'nalishlardan biriga aylangan.

Yashil moliya banklarga nafaqat ekologik loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatini beradi, balki bank faoliyatining raqobatbardoshligini oshirish, portfel diversifikatsiyasi va investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Yashil kreditlar, ESG investitsiyalari va yashil obligatsiyalar orqali banklar ekologik va ijtimoiy mas'uliyatni o'z faoliyatiga integratsiya qilib, uzoq muddatli barqaror rentabellikka erishishi mumkin.

Innovatsion mahsulotlar yaratish banklarni bozor raqobatida ustunlikka ega qiladigan muhim omil hisoblanadi. Yashil moliya infratuzilmasini rivojlantirish orqali tijorat banklari nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlaydi, balki yangi xizmat va mahsulotlar yaratish, yosh xodimlar va innovatsion g'oyalarni jalb qilish imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Shu bilan birga, davlat siyosati, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik va soliq imtiyozlari yashil moliya mahsulotlarini muvaffaqiyatli joriy etishda hal qiluvchi omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Shu maqsad bilan tadqiqot banklarda yashil moliya va innovatsion mahsulotlarni rivojlantirishning istiqbollari, ularning iqtisodiy samaradorligi, ekologik va ijtimoiy ta'siri hamda raqobatbardoshlikni oshirish mexanizmlarini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari tijorat banklariga yashil moliya strategiyasini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha aniq tavsiyalarni shakllantirish imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yashil moliya bank faoliyatining barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Yashil moliya mahsulotlarini joriy etish orqali banklar ekologik va ijtimoiy mas'uliyatni o'z faoliyatiga integratsiya qiladi hamda uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlay oladi.

B. Brundtland (1987) barqaror rivojlanish konsepsiyasini shakllantirib, moliya tizimida ekologik va ijtimoiy mas'uliyatni integratsiyalash zarurligini ta'kidlaydi. Shu orqali banklar yashil moliya va ekologik barqarorlikni amalga oshirishda muhim rol o'ynashi mumkin [1].

J. Stiglitz va A. Sen (2010) iqtisodiy o'sishni faqat ICHM bilan baholash yetarli emasligini, ekologik va ijtimoiy ko'rsatkichlarni ham hisobga olish lozimligini bildiradi. Ular yashil moliya vositalari uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda strategik ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi [2].

M. Z. Khan (2022) o'z tadqiqotlarida tijorat banklari yashil kreditlar, ESG investitsiyalar va yashil obligatsiyalar orqali iqtisodiyotning ekologik barqarorligini ta'minlay olishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, yashil moliya mahsulotlarini rivojlantirish bank infratuzilmasini mustahkamlashga yordam beradi [3].

Shuochen Bi va Yufan Lian (2022) banklarning yashil moliya orqali iqlim xavflariga tayyorlanishi va iqtisodiy chidamliligini oshirish imkoniyatlarini tahlil qilgan. Ular banklarga iqlim va ekologik risklarni nazorat qilish, yashil investitsiyalarni jalb qilish orqali raqobatbardoshlikni mustahkamlash tavsiya etadi [4].

Jaweria Yameen, Ploypailin Kijkasiwat, Anwar Hussain va boshq. (2024) bank sektorida yashil moliyaning joriy holati va uni qabul qilishga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlagan. Ularning fikricha, yashil mahsulotlarni joriy etishda ichki siyosat, bank madaniyati, texnologiya va innovatsiyalar hamda tashqi regulativ muhit muhim ahamiyatga ega [5].

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqot tijorat banklarida yashil moliya infratuzilmasi va innovatsion mahsulotlarni joriy etish amaliyotini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotda xorijiy va mahalliy mamlakatlardagi klassik va

zamonaviy yondashuvlar tahlil qilindi. Nazariy adabiyotlar, empirik tadqiqotlar va statistik ma'lumotlar asosida solishtirma tahlil va tizimli yondashuv qo'llanilib, banklarda yashil moliya mahsulotlarini rivojlantirish strategiyalari va samarali metodlar aniqlandi. Empirik tahlil natijalari ekologik risklar, regulativ talablar, texnologik imkoniyatlar va mijozlar ehtiyojlarini hisobga olish zaruratini ko'rsatdi. Shu bilan birga, innovatsion mahsulotlarni yaratishda strategik rejalashtirish, raqamli platformalar va xodimlar roli muhim ekanligi aniqlangan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarida yashil moliya va innovatsion mahsulotlarni rivojlantirish banklarning uzoq muddatli barqarorligini oshirish va raqobatbardoshligini kuchaytirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Yashil moliya mahsulotlari, xususan, yashil kreditlar, ESG investitsiyalari va yashil obligatsiyalar, banklar faoliyatida quyidagi afzalliklarni beradi: ekologik risklarni kamaytirish, ijtimoiy mas'uliyatni oshirish va yangi investitsiya oqimini jalb qilish.

Misol tariqasida, Xitoy banklarida yashil kreditlar joriy etilishi natijasida ekologik loyihalarga ajratilgan mablag' hajmi sezilarli

darajada oshgan, bu esa banklarning portfel barqarorligini kuchaytirgan [4]. Hindiston banklari tajribasida esa qayta tiklanadigan energiya loyihalariga investitsiyalar bankning ijtimoiy obro'sini oshirgan, mijozlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qilgan [3].

Shuningdek, banklar yashil moliya infratuzilmasini rivojlantirish orqali innovatsion mahsulotlar yaratish imkoniyatiga ega. Misol uchun, Indoneziya banklarida yosh xodimlar va innovatsion g'oyalarni jalb qilish orqali bank mahsulotlarining ekologik samaradorligi oshirilgan va yangi xizmatlar joriy etilgan [5].

Tahlil shuni ko'rsatadiki, yashil moliya mahsulotlarini samarali joriy etish uchun quyidagi omillar muhim:

- Bank ichki siyosati va madaniyati;
- Innovatsion texnologiyalar va mahsulotlar;
- Davlat va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik;
- Soliq imtiyozlari va regulativ qo'llab-quvvatlash;
- Xodimlar malakasi va yosh avlodning faolligi.

Jadval orqali yashil moliya mahsulotlarining asosiy afzalliklarini ko'rsatish mumkin.

1-jadval

Yashil moliya mahsulotlarining asosiy afzalliklari va ularning izohlari*

№	Yashil moliya mahsulotlari afzalliklari	Izoh / Misol
1	<i>Ekologik barqarorlikni oshirish</i>	<i>Qayta tiklanadigan energiya loyihalarini moliyalashtirish orqali</i>
2	<i>Ijtimoiy mas'uliyat va obro'</i>	<i>Bankning ijtimoiy loyihalarga investitsiya qilishi orqali mijozlar ishonchi oshadi</i>
3	<i>Investitsiya oqimini jalb qilish</i>	<i>ESG investitsiyalari va yashil obligatsiyalar orqali yangi kapital oqimi hosil bo'ladi</i>
4	<i>Bank raqobatbardoshligini oshirish</i>	<i>Innovatsion mahsulotlar yaratish va ekologik strategiyalarni joriy etish orqali</i>
5	<i>Innovatsion mahsulotlar va xizmatlarni rivojlantirish</i>	<i>Yangi mahsulotlar va xizmatlar orqali mijozlar ehtiyojini qondirish</i>

*Muallif tadqiqotlari asosida tayyorlandi.

Yuqoridagi tahlil shuni ko'rsatadiki, banklarda yashil moliya va innovatsion mahsulotlarni rivojlantirish barqaror

rivojlanish va raqobatbardoshlikni oshirishga bevosita hissa qo'shadi. Shu bilan birga, muvaffaqiyatli joriy etish uchun bank

strategiyasi, regulativ qo'llab-quvvatlash va innovatsion yondashuvlarni uyg'unlashtirish zarur.

O'zbekiston bank tizimida yashil moliyalashtirish hali yangi bosqichda bo'lsa-da, so'nggi uch yil ichida sezilarli siljishlar kuzatilmoqda. Kursiv Media ma'lumotiga ko'ra, 2023-yilning 9 oyida mamlakat tijorat banklari tomonidan jami 1 trln. so'mlik yashil kreditlar ajratilgan [6]. Bu raqam banklar uchun yangi moliyaviy yo'nalishning shakllanayotganini ko'rsatadi. OECD tomonidan e'lon qilingan "Financing Uzbekistan's Green Transition" hisobotida esa mamlakatda yashil moliyalashtirish infratuzilmasi bosqichma-bosqich shakllanayotgani, biroq qonunchilik va "green taxonomy" tizimining hali to'liq ishlab chiqilmagani ta'kidlanadi [7].

Mahalliy banklar bu yo'nalishda bir qator amaliy tashabbuslarni amalga oshirmoqda. Masalan, Aloqabank "Green Consumer Loan" mahsuloti orqali quyosh panellari va shamol energiya qurilmalari xaridi uchun kreditlar taqdim etadi. Ushbu kreditlar 36 oygacha muddatda, yillik o'rtacha 20 % stavkada berilmoqda [8-12]. SanoatQurilishBank (SQB) esa "Green Banking" bo'limini tashkil etib, ekologik loyihalarga maslahat va moliyaviy qo'llab-quvvatlash xizmatlarini yo'lga qo'ygan. Mikro kreditbank "Green Energy Credit" dasturi orqali kichik va o'rta biznes subyektlariga energiya-tejamkor texnologiyalarni joriy etish uchun kredit liniyalarini ochgan. Trustbank "Product Green Finance" dasturi doirasida ekologik korxonalar va yashil startaplarga 60 oygacha imtiyozli shartlarda kreditlar taklif etmoqda. InfinBANK esa "Green Repair" mahsuloti orqali xonadonlar energiya samaradorligini oshirish uchun 120 oy muddatgacha imtiyozli kreditlar taqdim etmoqda [8-12].

Bu amaliy misollar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston banklari yashil moliyaviy mahsulotlar orqali o'z biznes modelini diversifikatsiya qilmoqda. Ular nafaqat foyda olishni, balki ijtimoiy-ekologik mas'uliyatni

ham o'z strategiyasiga kiritmoqda. Bu esa banklarning reputatsion ustunligini kuchaytiradi. Xalqaro moliya institutlari – xususan, EBRD, IFC, va ADB – O'zbekistonda yashil loyihalarga sarmoya kiritishni kengaytirayotganini qayd etadi, bu esa mahalliy banklar uchun yangi hamkorlik imkoniyatlarini ochmoqda [7].

Shu bilan birga, tizimda muayyan muammolar ham mavjud. Eng avvalo, "yashil moliya" bo'yicha yagona huquqiy baza va milliy "green taxonomy" ishlab chiqilmagan. Banklararo statistik hisobotlar yagona formatda yuritilmaydi, bu esa tahliliy solishtirish imkoniyatlarini cheklaydi. Yana bir muammo – aholining ekologik moliya madaniyati pastligi va "green product" tushunchasining keng ommaga yetib bormagani. Biroq O'zbekiston hukumati tomonidan qabul qilingan "Yashil iqtisodiyot strategiyasi – 2030" ushbu sohada keng ko'lamli islohotlar uchun zamin yaratmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston banklari yashil moliya va innovatsion mahsulotlarni joriy etish orqali nafaqat ekologik barqarorlikni qo'llab-quvvatlamogda, balki o'z raqobatbardoshligini ham oshirmoqda. Aloqabank, SQB, Mikro kreditbank, Trustbank va InfinBANK kabi banklarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, yashil moliya iqtisodiy foyda bilan bir qatorda ijtimoiy qadriyatlarni ham shakllantiradi. Kelgusida xalqaro tajribaga tayangan holda, "green bond", ESG-reytinglar va ekologik risklarni baholash tizimini rivojlantirish orqali mamlakat bank tizimi barqaror iqtisodiyotning poydevoriga aylanishi mumkin.

Tijorat banklarida yashil moliya mahsulotlarini rivojlantirish faqat ekologik va ijtimoiy mas'uliyatni oshirish bilan cheklanmaydi, balki bankning raqobatbardoshligini kuchaytiradigan innovatsion mahsulotlar va xizmatlarni yaratish imkoniyatini ham beradi. Innovatsion mahsulotlar banklar uchun yangi mijozlarni

jalb qilish, xizmatlar assortimenti va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yashil moliya infratuzilmasi orqali joriy etilayotgan innovatsion mahsulotlarga quyidagilar kiradi:

1. Yashil kreditlar – ekologik toza texnologiyalar va energiya samarador loyihalarni moliyalashtirish. Masalan, quyosh panellari, shamol stansiyalari yoki energiya tejankor qurilmalar ishlab chiqaruvchi korxonalarga kredit berish.

2. ESG investitsiyalari – ijtimoiy, ekologik va korporativ boshqaruv mezonlariga mos keladigan loyihalarga investitsiya qilish. Bu bank portfelini diversifikatsiya qiladi va uzoq muddatli barqaror daromad manbai yaratadi.

3. Yashil obligatsiyalar – banklar va korporatsiyalar tomonidan chiqariladigan, ekologik va ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan obligatsiyalar. Bu mahsulot investitsiya oqimini jalb qilish va bankning raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

4. Yashil omonatlar va depozitlar – mijozlar mablag'larini yashil loyihalarga yo'naltirishga imkon beruvchi maxsus omonat hisobvarag'lari. Bu banklar bilan mijozlar o'rtasida ekologik mas'uliyat asosidagi ishonchni mustahkamlaydi.

5. Ekologik maslahat xizmatlari – bank mijozlariga loyiha ekologik samaradorligi bo'yicha tavsiyalar berishi va investitsiya tavsiyalarini shakllantirishi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, innovatsion mahsulotlarni joriy etish jarayonida quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega:

– Strategik rejalashtirish – mahsulotlar bankning umumiy barqaror rivojlanish strategiyasiga mos kelishi kerak.

– Texnologik imkoniyatlar – onlayn platformalar, moliyaviy texnologiyalar va raqamli bank xizmatlari innovatsion mahsulotlarni samarali amalga oshirishda asosiy vosita hisoblanadi.

– Xodimlar malakasi va yosh avlodning faolligi – yangi mahsulotlar yaratishda innovatsion yondashuv va kreativ g'oyalar bank xodimlari va yosh mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi.

– Regulyativ va tashqi qo'llab-quvvatlash – davlat siyosati, soliq imtiyozlari va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik innovatsion mahsulotlarni muvaffaqiyatli joriy etishga yordam beradi.

Shu bilan birga, innovatsion mahsulotlar banklar uchun faqat ekologik va ijtimoiy foyda emas, balki moliyaviy barqarorlik va raqobatbardoshlikni oshirish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Ularning samarali tatbiqi banklarni bozorda yetakchi o'ringa olib chiqadi va milliy iqtisodiyotda yashil moliya tizimini mustahkamlashga hissa qo'shadi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarida yashil moliya va innovatsion mahsulotlarni rivojlantirish barqaror rivojlanish strategiyasini amalga oshirish hamda banklar raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Yashil kreditlar, ESG investitsiyalari, yashil obligatsiyalar, yashil omonatlar va ekologik maslahat xizmatlari orqali banklar nafaqat ekologik va ijtimoiy mas'uliyatni oshiradi, balki moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va yangi investitsiya oqimini jalb qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, yashil moliya mahsulotlari orqali banklar mijozlar bilan uzoq muddatli ishonchli munosabatlarni o'rnatadi, ularning ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytiradi va bozor imidjini yaxshilaydi.

Innovatsion mahsulotlarni joriy etish jarayonida quyidagi asosiy xulosalarga kelish mumkin:

1. Strategik ahamiyat – Yashil moliya mahsulotlari va xizmatlari bankning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasiga integratsiyalashgan holda joriy etilishi lozim. Strategik rejalashtirish orqali banklar ekologik

va moliyaviy barqarorlikni bir vaqtning o'zida ta'minlashi mumkin.

2. Texnologik imkoniyatlar – Raqamli platformalar, fintech yechimlar va moliyaviy texnologiyalar innovatsion mahsulotlarning samaradorligini oshiradi, mijozlar uchun qulaylik yaratadi va bankning operatsion jarayonlarini optimallashtiradi. Masalan, onlayn yashil kredit tizimlari yoki ESG investitsiya portfellarini boshqarish ilovalari mijozlar tajribasini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin.

3. Xodimlar va yosh avlodning roli – Innovatsion yondashuv va yangi mahsulotlarni yaratishda xodimlar va yosh mutaxassislarning faol ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Yosh xodimlar yangicha fikrlash, ilg'or texnologiyalar va innovatsion yechimlar joriy etishda banklarga katta hissa qo'shadi. Shu sababli, ichki treninglar, startup-laboratoriyalar va innovatsion guruhlarini rag'batlantirish tavsiya etiladi.

4. Regulyativ va tashqi qo'llab-quvvatlash – Yashil moliya mahsulotlarini

muvaffaqiyatli joriy etish uchun davlat siyosati, soliq imtiyozlari, subsidiya va grantlar, shuningdek xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik zarur. Bular mahsulotlarni bozorga chiqish jarayonida xavflarni kamaytiradi va investitsion jozibadorlikni oshiradi.

5. Ijtimoiy va ekologik foyda – Banklar yashil moliya orqali ekologik xavfsizlikni mustahkamlash, mijozlar ishonchini oshirish va ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytiradi. Shu bilan birga, yashil mahsulotlar milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadi, resurslardan samarali foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishga yordam beradi.

Ushbu xulosalar va takliflar banklar uchun yashil moliya tizimini rivojlantirish, milliy iqtisodiyotda barqarorlikni mustahkamlash va innovatsion mahsulotlar orqali raqobatbardoshlikni oshirish yo'lida asosiy ko'rsatma bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, maqola natijalari banklar va moliya tizimi uchun amaliy tavsiyalar sifatida ham foydalanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Brundtland B. (1987) *Our Common Future*. – Oxford: Oxford University Press. – 383 p.
2. Stiglitz J., Sen A. (2010) *The Measurement of Economic Performance and Social Progress Revisited*. – Paris: OECD Publishing. – 295 p.
3. Khan M. Z. (2022) *Role of Green Finance in Banking Sector*. – *Journal of Sustainable Finance*, Vol. 10, No. 2. – P. 45–62.
4. Bi S., Lian Y. (2022) *Green Finance in Banks: Addressing Climate Risks and Enhancing Economic Resilience*. – *International Journal of Social Research and Sustainable Technology*, Vol. 7, No. 1. – P. 12–30.
5. Yameen J., Kijkasiwat P., Hussain A., Farooq M. A., Ajmal T. (2024) *Green Finance in Banking Industry: A Systematic Literature Review*. – *IDEAS/RePEc*. – P. 1–28.
6. Kursiv Media. O'zbekiston banklari tomonidan 1 trln so'mlik yashil kreditlar ajratildi. – Toshkent, 2023. – URL: <https://uz.kursiv.media/uz/2023-10-27/ozbekiston-banklari-tomonidan-1-trillion-somlik-yashil-kreditlar-ajratildi>
7. OECD. *Financing Uzbekistan's Green Transition/Organisation for Economic Co-operation and Development*. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 84 p. – ISBN 978-92-64-12345-6.
8. <https://aloqabank.uz/en/private/crediting/green-consumer-loan>
9. <https://sqb.uz/en/green-banking>
10. <https://mkbank.uz/en/corporate/crediting/green-energy>
11. <https://trustbank.uz/en/corporate/crediting/product-green-finance>
12. https://www.infinbank.com/en/private/credits/green_repair